СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	1091
Мухторов М. Н., Каримова А. М.	
«HR BUSINESS PARTNER» КАК ИНСТРУМЕНТ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА	1098
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN REAL VAQT REJIMIDA DINAMIK RISK-PROFILGA ASOSLANGAN KREDIT LAYOQATINI BAHOLASHNING ADAPTIV MODEL (DRP-KREDIT MODEL)...	1109
Hamroyeva Sabina Ismoil qizi, Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA AGROBIZNES TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1115
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	
INFLYASIYA VA BUDJET XARAJATLARI: ASOSIY BOG'LIQLIKLAR.....	1118
Izbosarov Bobur Baxriddinovich, Umirov Sherzod Baxriddinovich	
KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1124
Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	1128
Уктамов Альберт Жасурович Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: СНИЖЕНИЕ РИСКОВ, УКРЕПЛЕНИЕ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ АКТИВОВ.....	1135
Эгамова Махфурат Эсановна	
ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
Shohruzbek Ruziyev	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULYAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	1156
Xalikulova Gulzada Tojimuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna	
MARKAZIY OSIYODA SUN'IY INTELLEKTNING KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1162
Kodirova Samira Kamol qizi	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOIIY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	1169
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	
RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIIY USTUNLIK LARNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	1175
Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI	1181
Kazakova Zulayho, Saidazamova Nilufar, Isroilov Shohruh	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSPORT TIZIMI TRANSFORMATSIYASI ORQALI BARQAROR MAKROIQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIY-USLUBIIY ASOSLARI.....	1186
Jalolova Madina Shopolat qizi	
ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	1192
Шермухамедов Акмал Комилжонович	
KICHIK BIZNESDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARASI.....	1198
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
KIYIM DIZAYNIDA ESTETIK VA FUNKSIONALLIK UYG'UNLIGI.....	1202
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
K-SURE JANUBIIY KOREYA EKSPORTINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA ASOSIIY DAVLAT MUASSASASI SIFATIDA.....	1205
Umarov Xasan Sunnatullaevich	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII	1210
To'rayeva Nafisa Odiljonovna	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	1221
Jalolov Abbasxon Ravshanxon o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI.....	1228
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING AHAMIYATI	1233
Sabirov Mirza Qilichbayevich	
Zararli dasturiy ta'minotni aniqlash va tahlil qilishda neyron tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari.....	1238
Nuratdinov Xushnid Begzadovich, Erejepov Kewlimjay Kaymatdinovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA INVESTITSIIYA FAOLIYATINING ZAMONAVIIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	1244
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT METODOLOGIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI TAMOIYILLAR VA YONDASHUVLAR.....	1250
Saitmuratov Saitmuarat Masharip o'g'li	
ASINXRON MOTORLARNING NOSIMMETRIK REJIMLARINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TIZIMLARI UCHUN EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR METODIKASINI ISHLAB CHIQISH.....	1255
Tojimurodov Dilshodbek Dilmurodjon o'g'li	



SOLIQ ORGANLARI VA SOLIQ TO'LOVCHILAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI SUDGACHA HAL ETISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1263
Solihova Xumora Xasan qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	1269
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARI MUVOFIQLIGI VA UNI BOSHQARISH	1274
Saidov Doniyor Abdullayevich	
AI-BASED AUTOMATED ASSESSMENT SYSTEMS AND THEIR ROLE IN EDUCATION QUALITY MONITORING: THE CASE OF UZBEKISTAN.....	1280
Majidova Yulduz, Janayev Bunyod, Choriyev Anvar, Mamatqulov Mavlon	
MAHALLIY BYUDJETLARDA SOLIQLARNI UNDIRISHNI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI	1286
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA XUSUSIYATLARI.....	1294
Murtazayev Olim, Norbekov Fazliddin Iskandar o'g'li	
SOLIQ NIZOLARINI MA'MURIY TARTIBDA KO'RIB CHIQISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1301
Solihova Xumora Xasan qizi	
KRIPTOAKTIVLAR VA MBRVNING MONETAR SIYOSAT TRANSMISSIYA MEXANIZMIGA TA'SIRI	1305
R.I. Rashidov, S.B.Eshmurodova	
"SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM" MODELINING SINERGETIK SAMARADORLIGI VA TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI INVESTITSİYALAR BILAN TA'MINLASHDAGI IMKONIYATLARI.....	1310
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna	
KORPORATIV KONFLIKTLARNI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1318
Xolikova Saboxat Abdukarim qizi	
LONDON XALQARO MOLIYA MARKAZINING RIVOJLANISH OMILLARI VA RAQOBAT USTUNLIKLARI	1325
Alimardonov Elshod Dilshodovich	
XARID TURIZMI VA TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: O'ZBEKISTON VA QO'SHNI DAVLATLAR MISOLIDA.....	1332
Akmal Bakhromov	

XARID TURIZMI VA TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: O'ZBEKISTON VA QO'SHNI DAVLATLAR MISOLIDA



Akmal Bakhromov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, katta o'qituvchi

E-mail: baakmal7111@gmail.com

Tel: +998 99 818-71-11

ORCID: 0000-0003-3713-3117

Annotatsiya: Ushbu maqolada xarid turizmining turizm xizmatlari eksportiga ta'siri O'zbekiston va qo'shni davlatlar misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda 2020–2025-yillar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tavsifiy statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar O'zbekistonga kelayotgan turistlarning asosiy qismini Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'iston fuqarolari tashkil etishini ko'rsatdi. Tadqiqot xarid turizmi turizm xizmatlari eksportining muhim tarkibiy qismi ekanligini hamda chegaraoldi hududlar ushbu yo'nalishni rivojlantirishda katta salohiyatga ega ekanligini aniqladi. Natijalar asosida xarid turizmini rivojlantirish va eksport daromadlarini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: xarid turizmi, turizm xizmatlari eksporti, turist xarajatlari, shopping tourism, chegaraoldi turizmi, eksport daromadlari, O'zbekiston, Markaziy Osiyo.

Аннотация: В данной статье проанализировано влияние шопинг-туризма на экспорт туристических услуг на примере Узбекистана и соседних государств. В исследовании использованы методы описательной статистики и сравнительного анализа на основе официальных статистических данных за 2020–2025 годы. Результаты показали, что основную часть туристов, посещающих Узбекистан, составляют граждане Кыргызстана, Таджикистана и Казахстана. Исследование подтвердило, что шопинг-туризм является важной составляющей экспорта туристических услуг, а приграничные территории обладают значительным потенциалом для развития данного направления. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации по развитию шопинг-туризма и увеличению экспортных доходов.

Ключевые слова: шопинг-туризм, экспорт туристических услуг, расходы туристов, shopping tourism, приграничный туризм, экспортные доходы, Узбекистан, Центральная Азия.

Abstract: This article examines the impact of shopping tourism on tourism services exports using the examples of Uzbekistan and neighboring countries. The study employs descriptive statistical and comparative analysis methods based on official statistical data for the period 2020–2025. The findings reveal that the majority of tourists visiting Uzbekistan are citizens of Kyrgyzstan, Tajikistan, and Kazakhstan. The research demonstrates that shopping tourism constitutes an important component of tourism services exports and that border regions possess substantial potential for the further development of this sector. Based on the findings, practical recommendations were developed to promote shopping tourism and increase export revenues.

Keywords: shopping tourism, tourism services exports, tourist expenditures, cross-border tourism, export revenues, Uzbekistan, Central Asia, regional tourism development.

KIRISH

So'nggi yillarda xalqaro turizm jahon iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Turizm mamlakatlar uchun nafaqat valyuta tushumlari va xizmatlar eksportining muhim manbai, balki hududiy rivojlanish, bandlikni ta'minlash va investitsiyalarni jalb etish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. BMT Turizm Tashkiloti (UN Tourism) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda xalqaro turistlar soni 1,4 milliard kishiga yetib, pandemiyadan oldingi darajaga deyarli tiklandi.

Xalqaro turizmining zamonaviy yo'nalishlari orasida xarid turizmi (shopping tourism) alohida o'rin tutadi. Xarid turizmi turistlarning sayohat davomida tovar va mahsulotlar xarid qilish bilan bog'liq faoliyatini ifodalaydi hamda ko'plab destinatsiyalarda turist xarajatlarining muhim qismini tashkil etadi. Jahon amaliyotida Dubay,



Istanbul, Bangkok va Singapur kabi markazlar xarid turizmini rivojlantirish orqali turizm daromadlarini sezilarli darajada oshirishga erishgan.

Turizm iqtisodiyotida turist xarajatlari eksport tushumlarining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Xorijiy turistlarning joylashtirish, ovqatlanish, transport va xaridlarga sarflagan mablag'lari xizmatlar eksporti tarkibiga kiradi. Shu nuqtayi nazardan, xarid turizmi nafaqat savdo hajmini oshiradi, balki turizm xizmatlari eksportining o'sishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda xorijiy turistlar sonining ortishi xarid turizmining iqtisodiy ahamiyatini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistondan tashrif buyurayotgan turistlarning muayyan qismi kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari, farmatsevtika vositalari va milliy hunarmandchilik buyumlarini xarid qilish maqsadida mamlakatga kelmoqda. Natijada xarid xarajatlari turizm xizmatlari eksportining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanib bormoqda.

Biroq mamlakatda turizm xizmatlari eksporti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda asosan turistlar oqimi, infratuzilma, investitsiyalar va xizmatlar hajmiga e'tibor qaratilib, xarid turizmining eksport daromadlariga qo'shayotgan hissasi yetarli darajada o'rganilmagan. Xususan, qo'shni davlatlardan kelayotgan turistlarning xarid xarajatlari va ularning turizm eksportidagi o'rni bo'yicha ilmiy tadqiqotlar cheklangan.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi xarid turizmining turizm xizmatlari eksportiga iqtisodiy ta'sirini baholash hamda O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi turistik aloqalar misolida uning rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda xarid turizmining nazariy asoslari, turist xarajatlarning eksport daromadlaridagi o'rni va ushbu yo'nalishni rivojlantirishning amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA O'F ADABIYOTLAR SHARHI

Xarid turizmi (shopping tourism) zamonaviy turizm industriyasining tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu turizm shaklida turistlarning sayohat qilish qaroriga xarid qilish omili sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Timothy (2005) ta'kidlaganidek, ayrim hollarda xarid qilish sayohatning qo'shimcha elementi emas, balki uning asosiy maqsadiga aylanadi. Mahsulot sifati, narxlar o'rtasidagi tafovut, milliy brendlar va soliq imtiyozlari turistlarni ma'lum destinatsiyalarga jalb qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Xarid turizmining shakllanishini izohlashda iqtisodiy geografiya va iste'mol nazariyalari muhim o'rin tutadi. Timothy va Butler (1995) chegaradosh hududlarda xarid turizmi ko'pincha narxlar farqi, mahsulotlar assortimentining kengligi hamda valyuta kurslaridagi tafovutlar bilan bog'liqligini qayd etadilar. Mualliflar fikricha, iqtisodiy integratsiya va savdo aloqalari rivojlangan sari xarid maqsadidagi sayohatlar ham ortib boradi. Ayniqsa, qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi qisqa muddatli tashriflarda xarid qilish asosiy motivlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Turizm iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan xarid turizmi turist xarajatlari oshiruvchi muhim omillardan hisoblanadi. UN Tourism ekspertlarining qayd etishicha, ko'plab destinatsiyalarda xarid qilish turistlar xarajatlari tarkibida eng katta ulushlardan birini egallaydi. Hashamatli mahsulotlar, zargarlik buyumlari, milliy hunarmandchilik mahsulotlari va kiyim-kechak xarid turizmining asosiy obyektlari sifatida qaraladi. Natijada turistlarning xarid faoliyati turizm sektoridan tashqari savdo va ishlab chiqarish tarmoqlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turizm xizmatlari eksportini shakllantirishda turist xarajatlarning ahamiyati ko'plab iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan. Sinclair va Stabler (1997) xorijiy turistlarning mamlakat hududida amalga oshirgan barcha xarajatlari eksport daromadlari sifatida baholanishini ta'kidlaydilar. Shu sababli turistlarning xarid xarajatlari ham xizmatlar eksportining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu yondashuv turizmning eksport salohiyatini baholashda turistlar soni bilan bir qatorda ularning sarf-xarajatlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Turizm va savdo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq etgan ishlarda xarid turizmining multiplikativ ta'siriga alohida e'tibor qaratiladi. Jansen-Verbeke (1991) xarid turizmini shahar turizmining muhim tarkibiy elementi sifatida baholab, turistlarning xaridlari chakana savdo, xizmat ko'rsatish va mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlarining daromadlarini oshirishini qayd etadi. Bundan tashqari, xarid turizmi yangi ish o'rinlarini yaratish va kichik biznes faoliyatini rag'batlantirish orqali hududiy iqtisodiyot rivojlanishiga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda turist xarajatlari va turizm eksporti o'rtasidagi bog'liqlik masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. OECD hamda WTO hisobotlarida turist xarajatlari tarkibini chuqur o'rganish turizm siyosatini shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayrim tadqiqotlarda turistlar sonini ko'paytirishdan ko'ra, ularning o'rtacha xarajatlarini oshirish iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanligi ta'kidlanadi.

Xalqaro tajriba xarid turizmining turizm xizmatlari eksportidagi rolini yaqqol namoyish etadi. Masalan, Dubay dunyoning yirik xarid turizmi markazlaridan biri hisoblanadi. Har yili tashkil etiladigan Dubai Shopping Festival millionlab turistlarni jalb etib, mamlakat turizm daromadlarining o'sishiga xizmat qilmoqda. Xuddi shunday natijalar Istanbul, Bangkok, Singapur va Seul kabi shaharlarda ham kuzatiladi.

Turkiya tajribasi bu borada alohida qiziqish uyg'otadi. Istanbul tarixiy va madaniy turizm markazi bo'lish bilan birga, xalqaro xarid turizmining ham yirik markazlaridan biri sanaladi. Tadqiqotlar Rossiya, Arab davlatlari va Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kelayotgan turistlarning sezilarli qismi xarid qilishni tashrifning asosiy maqsadlaridan biri sifatida ko'rsatishini qayd etadi. Bu esa turizm tushumlari tarkibida xarid xarajatlarning ulushi yuqori ekanligini anglatadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida ham xarid turizmi bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Ayniqsa, chegaradosh hududlarda amalga oshiriladigan qisqa muddatli safarlar ko'pincha savdo va xarid faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondan O'zbekistonga tashrif buyurayotgan fuqarolar orasida xarid maqsadidagi safarlar muhim o'rin tutadi. Shunga qaramay, mazkur yo'nalishning turizm eksportiga qo'shayotgan hissasi hali yetarli darajada o'rganilmagan.

O'zbekistonda turizm xizmatlari eksporti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan turistlar oqimi, turizm infratuzilmasi, investitsiyalar va institutsional omillarga qaratilgan. Xarid turizmining eksport daromadlariga ta'siri, qo'shni davlatlardan kelayotgan turistlarning xarid xarajatlari va ularning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ilmiy izlanishlar esa nisbatan kam uchraydi.

Demak, mavjud adabiyotlar xarid turizmi turizm xizmatlari eksportining muhim tarkibiy qismi ekanligini tasdiqlaydi. Biroq O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi turistik oqimlar misolida xarid turizmining iqtisodiy ta'siri yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, xarid turizmining turizm xizmatlari eksportidagi o'rni va uning rivojlanish istiqbollarini baholashni maqsad qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xarid turizmining turizm xizmatlari eksportiga iqtisodiy ta'sirini baholash maqsadida kompleks tahliliy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi turizm iqtisodiyoti, xalqaro xizmatlar savdosi va iste'mol nazariyalari bo'yicha mavjud ilmiy yondashuvlarga tayangan holda shakllantirildi. Tadqiqot davomida turizm xizmatlari eksporti va xarid turizmi o'rtasidagi bog'liqlik statistik hamda qiyosiy tahlil usullari yordamida o'rganildi.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasiga qo'shni davlatlardan tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar va ularning xarid xarajatlari tanlandi. Tahlilda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistondan kelayotgan turistlar oqimiga alohida e'tibor qaratildi. Buning asosiy sababi mazkur mamlakatlar O'zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlarning asosiy qismini tashkil etishi hamda qisqa muddatli va xarid maqsadidagi safarlar ulushining nisbatan yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotda ikkilamchi ma'lumotlar (secondary data) manbalaridan foydalanildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Turizm qo'mitasi, Markaziy bank, Davlat bojxona qo'mitasi, BMT Turizm Tashkiloti (UN Tourism), Jahon banki va Jahon savdo tashkilotining rasmiy statistik ma'lumotlari tahlil qilindi. Tadqiqot davri sifatida 2020–2024-yillar oralig'i tanlandi. Mazkur davr pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlarini ham qamrab olganligi sababli, xarid turizmining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda bir nechta tahlil usullaridan foydalanildi. Birinchi bosqichda tavsifiy statistik tahlil (descriptive analysis) yordamida O'zbekistonga kelayotgan turistlar oqimi, ularning geografik tarkibi va turizm xizmatlari eksporti dinamikasi o'rganildi. Ikkinchi bosqichda qiyosiy tahlil (comparative analysis) usuli qo'llanilib, O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi turistik hamda savdo aloqalarining o'ziga xos jihatlari baholandi. Uchinchi bosqichda tarkibiy tahlil (structural analysis) yordamida turistlar xarajatlarning eksport daromadlaridagi ulushi va xarid turizmining iqtisodiy ahamiyati aniqlandi.

Tadqiqotda xarid turizmi turizm xizmatlari eksportining tarkibiy elementi sifatida talqin qilindi. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy turistlarning O'zbekiston hududida tovar va xizmatlar xarid qilish uchun sarflagan mablag'lari turizm eksportining muhim manbalaridan biri sifatida baholandi. Xarid turizmining iqtisodiy ta'sirini aniqlashda turistlar oqimi, turizm eksporti hajmi, turistlarning o'rtacha xarajatlari va chegaraoldi savdo faoliyati bilan bog'liq ko'rsatkichlardan foydalanildi.

Tahlil jarayonida qo'shni davlatlardan kelayotgan turistlarning xarid faoliyati turizm xizmatlari eksportiga ta'sir etuvchi omil sifatida ko'rib chiqildi. Xususan, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari, farmatsevtika vositalari, maishiy texnika va milliy hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talabning turizm eksporti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni baholandi. Bundan tashqari, xarid turizmi orqali yuzaga keladigan bilvosita iqtisodiy samaralar, jumladan, chakana savdo hajmining oshishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar daromadlarining ko'payishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishi ham tahlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuv xarid turizmining turizm xizmatlari eksportidagi o'rnini kompleks baholash, uning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va O'zbekistonda ushbu yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.



Natijalar va tahlil


2025-yilda O'zbekiston turizm sektorida rekord natijaga erishib, 11,7 mln xorijiy turistni qabul qildi. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 46,8 % ga yuqori bo'ldi (1-jadval).

1-jadval

2025-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan asosiy turistlar manbai bo'lgan davlatlar

Davlat	Turistlar soni (mln kishi)	Ulushi (%)
Qirg'iziston	3.3	28.2
Tojikiston	2.7	23.1
Qozog'iston	2.7	23.1
Rossiya	0.98	8.4
Turkmaniston va boshqalar	2.02	17.2
Jami	11.7	100.0

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonga kelayotgan turistlarning qariyb 74 foizi uchta qo'shni davlat — Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa xarid turizmi uchun qulay sharoit mavjudligini ko'rsatadi, chunki qisqa muddatli va chegaradosh safarlarda xarid qilish motivi odatda yuqori bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. 2025-yilda O'zbekistonga kelgan turistlar tarkibi

Diagrammadan ko'rinadiki, O'zbekiston turizm bozorining asosiy qismi qo'shni davlatlar hisobiga shakllanmoqda. Bu holat xarid turizmini rivojlantirish uchun muhim iqtisodiy imkoniyat yaratadi.

2024-yilda O'zbekiston turizm xizmatlari eksportidan 3,5 mlrd AQSh dollari daromad olgan bo'lsa, 2025-yilda turistlar sonining keskin ortishi natijasida turizm eksporti 4,4 mlrd AQSh dollaridan oshgani qayd etilgan.

Xalqaro amaliyotda xarid xarajatlari turistlar umumiy xarajatlarining 20–35 foizini tashkil qilishi qayd etiladi. Timothy (2005), UN Tourism hamda OECD tadqiqotlarida xarid xarajatlari ko'plab destinatsiyalarda eng yirik xarajat moddalari qatoriga kirishi ta'kidlangan.

Shundan kelib chiqib, agar O'zbekistonda xarid turizmining ulushi konservativ yondashuv asosida 25 foiz deb qabul qilinsa, 2025-yilda xarid turizmi orqali shakllangan eksport tushumi quyidagicha baholanishi mumkin:

$$\text{Shopping Tourism Revenue} = 4.4 \text{ billion} \times 0.25$$

$$\text{Shopping Revenue} = 4.4 \times 0.25 = 1.1 \text{ billion USD}$$

Natijada xarid turizmining iqtisodiy hissasi taxminan 1,1 mlrd AQSh dollariga teng bo'lishi mumkin. Bu esa turizm xizmatlari eksportining muhim tarkibiy qismi sifatida xarid turizmini alohida strategik yo'nalish sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

2025-yilda turizm eksporti tarkibida xarid turizmining taxminiy ulushi

Ko'rsatkich	Qiymat
Turizm xizmatlari eksporti	4,4 mlrd AQSh dollari
Xarid turizmi ulushi (taxminiy)	25 %
Xarid turizmi daromadi	1,1 mlrd AQSh dollari

Xarid turizmining rivojlanishida Andijon, Namangan, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu hududlar Qirg'iziston va Tojikiston bilan chegaradosh bo'lib, qisqa muddatli tashriflar ulushi yuqori hisoblanadi. Mazkur hududlarda kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari, farmatsevtika vositalari, qurilish materiallari hamda milliy hunarmandchilik mahsulotlariga talab nisbatan yuqori shakllangan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston turizm eksportining kelgusi o'sish manbalaridan biri turistlar sonini ko'paytirish emas, balki bir turistning o'rtacha xarajatlarini oshirish hisoblanadi. Aynan xarid turizmini rivojlantirish ushbu maqsadga erishishning eng samarali vositalaridan biri bo'lishi mumkin. Turistlar oqimining katta qismi qo'shni davlatlarga to'g'ri kelayotganligi sababli, chegaradosh hududlarda savdo markazlari, Tax Free tizimi, chegaraoldi savdo zonalar va milliy mahsulotlar klasterlarini rivojlantirish turizm xizmatlari eksportining qo'shimcha o'sishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda xarid turizmining turizm xizmatlari eksportiga iqtisodiy ta'siri O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi turistik oqimlar misolida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy turizm iqtisodiyotida turistlarning xarid xarajatlari turizm xizmatlari eksportining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy turistlar tomonidan mamlakat hududida amalga oshiriladigan xaridlar nafaqat chakana savdo hajmini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotga qo'shimcha valyuta tushumlarini jalb etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini rag'batlantirish va xizmatlar eksportini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Tahlillar O'zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlarning asosiy qismi qo'shni davlatlar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Xususan, 2025-yilda mamlakatga tashrif buyurgan 11,7 million turistning katta qismi Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'istondan kelgan bo'lib, ushbu mamlakatlar O'zbekiston turizm bozorining asosiy manbai hisoblanadi. Geografik yaqinlik, transport qulayligi, narxlar tafovuti va mahsulotlar assortimentining xilma-xilligi mazkur davlatlar fuqarolarining xarid maqsadida O'zbekistonga tashrif buyurishini rag'batlantiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari xarid turizmi turizm xizmatlari eksportining sezilarli qismini shakllantirayotganligini ko'rsatdi. Turizm eksporti tarkibida xarid xarajatlarining ulushi xalqaro tajribalar asosida baholanganda, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich taxminan 25 foiz atrofida bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Bu esa xarid turizmi orqali shakllangan eksport daromadlari hajmi 1 milliard AQSh dollaridan ortiq bo'lish ehtimolini ko'rsatadi. Mazkur natija xarid turizmining mamlakat turizm eksporti rivojlanishidagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida xarid turizmining hududiy jihatlari ham tahlil qilindi. Andijon, Namangan, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari kabi chegaradosh hududlar xarid turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu hududlarda qisqa muddatli tashriflar ulushi yuqori bo'lib, xarid qilish bilan bog'liq sayohatlar iqtisodiy faollikning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, chegaradosh hududlarda savdo infratuzilmasini rivojlantirish, logistika imkoniyatlarini yaxshilash va mahalliy mahsulotlarni targ'ib qilish turizm eksporti hajmini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, xarid turizmini turizm siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, chegaradosh hududlarda maxsus savdo va turizm zonalarini tashkil etish, yirik savdo markazlari va milliy mahsulotlar klasterlarini rivojlantirish zarur. Uchinchidan, xorijiy turistlar uchun soliq imtiyozlari va Tax Free tizimini kengaytirish xarid hajmini oshirishga xizmat qilishi mumkin. To'rtinchidan, milliy hunarmandchilik mahsulotlari, to'qimachilik buyumlari va oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro turistlar orasida faol targ'ib qilish orqali xarid turizmining eksport salohiyatini yanada kuchaytirish mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot xarid turizmi O'zbekiston turizm xizmatlari eksportining muhim, biroq yetarli darajada baholanmagan manbalaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Turistlar sonini ko'paytirish bilan bir qatorda, ularning xarajatlarini oshirishga qaratilgan siyosat yuritish turizm eksporti daromadlarini barqaror ravishda ko'paytirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, xarid turizmini rivojlantirish O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish va turizm xizmatlari eksportini diversifikatsiya qilishning istiqbolli



yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UN Tourism. (2025). *International Tourism Recovers Pre-Pandemic Levels in 2024*. Madrid: United Nations Tourism Organization.
2. UN Tourism. (2014). *Global Report on Shopping Tourism*. Madrid: World Tourism Organization (UNWTO).
3. Timothy, D. J. (2005). *Shopping Tourism, Retailing and Leisure*. Clevedon: Channel View Publications.
4. World Bank. (2024). *International Tourism Receipts (Current US\$)*. Washington, DC: The World Bank.
5. Timothy, D. J., & Butler, R. W. (1995). Cross-Border Shopping: A North American Perspective. *Annals of Tourism Research*, 22(1), 16–34.
6. Sinclair, M. T., & Stabler, M. (1997). *The Economics of Tourism*. London: Routledge.
7. Jansen-Verbeke, M. (1991). Leisure Shopping: A Magic Concept for the Tourism Industry? *Tourism Management*, 12(1), 9–14.
8. OECD. (2023). *OECD Tourism Trends and Policies 2023*. Paris: OECD Publishing.
9. World Trade Organization (WTO). (2024). *World Trade Statistical Review 2024*. Geneva: WTO.
10. Xiang, Z., & Fesenmaier, D. R. (2017). *Analytics in Smart Tourism Design: Concepts and Methods*. Cham: Springer.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). *O'zbekistonga 2025-yilda tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar*. Toshkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. (2025). *Turizm sohasining 2025-yildagi asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha hisobot*. Toshkent.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *Xizmatlar eksporti va xalqaro to'lovlar statistikasi*. Toshkent.
14. UN Tourism. (2025). *World Tourism Barometer*. Madrid: United Nations Tourism Organization.
15. Bakhromov, A. (2025). Yaqin xorijiy davlatlar turistlarining xaridlari: turizm xizmatlari eksportiga ta'siri. *VIII International Forum of Guides "Tourist and Excursion Activities: New Challenges and Ways of Development"*, 21–22 February 2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100